

BANKLAR, ULARNING TURLARI VA KREDIT TIZIMIDAGI ROLI

Toymuxamedov I.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Bank ishi” kafedrası dotsenti

Primova M.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Bank ishi va audit ta’lim yo’nalishi talabasi

***Annotatsiya.** Bugungi kunda O‘zbekistonning dunyo hamjamiyati bilan aloqalari rivojlanishi bank-moliya sohasida o‘zgarishlar bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Moliyaviy sektorni izchil isloh qilishga doir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2020-2025--yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi” to‘g‘risida gi qonunlar va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda bank sohasini rivojlantirishga doir juda muhim ishlar belgilab berilgan. Ta’kidlash lozimki, banklarning faoliyat yuritishi hozirgi kunda mamlakat iqtisodiyoti o‘shining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ular mamlakat iqtisodiyotining tayanchi va aks ettiruvchisidir.*

***Kalit so‘zlar:** bank, modernizatsiya, moliyaviy sektor, kredit institutlari, kredit obyekt, xorijiy investitsiyalar, xususiylashtirish, kadrlar malakasi.*

KIRISH

Hozirgi globallashtirish jarayonlari tezlashgan vaqtda iqtisodiyotni rivojlantirish bilan birgalikda bank tizimini ham rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki banklar iqtisodiyotning ajralmas bo‘g‘ini hisoblanadi.

Mamlakat taraqqiyoti, rivojlanishi va jahon hamjamiyatida muhim o‘rinlarni egallashi uchun uning iqtisodiyoti rivojlanishi muhim omil hisoblanadi. Hozirgi jadallashib borayotgan bir davrda jahon bozorida yuqori o‘rinlarni egallashi va davlat iqtisodiyoti rivojlanishida banklarning o‘rni juda katta. Iqtisodiyot rivojlanishining asosiy bo‘g‘inini uning bank va moliya tizimi tashkil etadi. Moliya iqtisodiyotimizning muhim qismidir, uning yordamida iqtisodiyot tartiblanadi, iqtisodiy o‘shish rag‘batlantiriladi. Banklarning mohiyati va funksiyalari, shuningdek, bajaradigan operatsiyalari va ko‘rsatadigan xizmatlari uning iqtisodiyotdagi o‘rnini belgilab beradi. Bozor munosabatlarining muhim bo‘g‘inlaridan biri bo‘lgan bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirishdan asosiy maqsad mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, butunjahon bank tizimi talablariga mos banklarni barpo etish va banklar faoliyatini yanada rivojlantirish hisoblanadi. O‘zbekistonda bank tizimi va kredit munosabatlari kundan-kunga rivojlanib, jadallashib bormoqda. Xalqaro moliya tashkilotlarining ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston “Biznes yuritish 2020” yillik reytingida 2019-yil yakunlari bo‘yicha 100 balldan 69,9 ball to‘plab, 190 mamlakat

orasida 69-o'rinni egalladi¹. Bu esa respublikada iqtisodiyotni tez sur'atlarda rivojlanib barayotganligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan bank tizimini isloh qilish borasida juda ko'p sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Ta'kidlash lozimki, respublikamiz bank-moliya tizimini isloh qilish va mustahkamlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, iqtisodiyotni kreditlash tizimini kengaytirish, ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sektorlarini ko'paytirish, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda bank tizimining rolini oshirish imkonini beradi. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"²gi² farmonga muvofiq bank sohasidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari belgilab berilmoqda. Ushbu strategiyada belgilangan chora tadbirlarning amalga oshirilishi banklar kapitallashuv darajasi va ko'rsatkichlarining barqaror o'sishini ta'minlagan holda, bank tizimini yanada isloh qilish va liberallashtirishda muhim omil bo'ldi. Bu va boshqa normativ hujjatlarda bank sohasidagi islohotlar, ya'ni, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va kengaytirish – bunda asosiy e'tibor mijozlarga yo'naltirilgan xizmatlar, kreditlash mexanizmlari va biznes jarayonlarini avtomatlashtirishga qaratilmoqda. Bu esa o'z navbatida banklarni o'zgartirish va xususiylashtirish, kadrlar malakasini oshirishga, hamda bu asosga yangi tushunchalar va yondashuvlarni shakllantirishga zarurat tug'diradi. Shuningdek, ushbu strategiya asosida bank nazorati bo'yicha qonunchilik bazasini takomillashtirish – bunda Bazel qo'mitasi standartlari, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari va boshqalarni joriy etish ham ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, vazirliklar, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlari tomonidan banklarning tadbirkorlik tavakkalchiliklarini boshqarish faoliyatiga aralashishini taqiqlash bank tizimining islohotga erishishida muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan olib qaraganda biz tadqiq etayotgan "Bank tizimini isloh qilish strategiyasi" mavzusi dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

O'zbekiston banklari milliy iqtisodiyotga ta'sir eta oluvchi qudratli tizimga aylangunga qadar uzoq evolyutsion rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Bu yo'lda qator qiyinchiliklarni yengib o'tishiga to'g'ri keldi. Mamlakatimizda so'nggi yillar davomida bank tizimini isloh qilish strategiyalarida asosiy tamoyil – ixtisoslashuvdan uzoqlashish va bank faoliyatini universallashtirishni chuqurlashtirish kuzatildi. Bank tizimini isloh qilish faoliyati yaqindan o'rganildi va ma'lumotlar bazasi yig'ildi.

¹ www.gazeta.uz

² Bank tizimini yanada isloh qilish strategiyasi to'g'risida. PF-5993-son. T.,2020 y. 12 may.

To'plangan ma'lumotlar asosida kuzatish va iqtisodiy tahlilni qiyoslash, tizimli yondashuv kabi uslublardan keng foydalanildi.

Hozirgi kunda moliyaviy sektorni izchil isloh qilish davomida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi va natijada ilg'or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur haqiqiy shart-sharoitlar yaratildi. Xususan, xalqaro standartlarga muvofiq keladigan va moliyaviy sohaga xorijiy investitsiyalar kiritish uchun jozibador huquqiy muhitni yaratadigan O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi hamda "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi yangilangan qonunlar qabul qilindi. Shu bilan birga, bank sohasidagi hozirgi holat tahlili bank sektorida davlatning yuqori darajada aralashuvi, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi bank sektorini iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish, banklarning hududlarga kirib borishini kengaytirish va barcha aholi punktlarida bir xil turdagi xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rilishi lozim.

Bank tizimini yaxshilash orqali iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi o'rtasida tadbirkorlikni yanada kengaytirish va shu bilan birga ishsizlikni ma'lum daraja kamaytirish nazarda tutiladi. Bank bu maxsus muassasa bo'lib, o'ziga xos bo'lgan vazifa va operatsiyalarni bajaradi. Bank bajaradigan vazifa va funksiyalar boshqa subyektlar faoliyatidan ajralib turishiga asos bo'ladi. Banklarning asosiy ishi pul bilan bog'liq bo'ladi va ular bozor munosabatining boshqa subyektlari faoliyatida yuzaga keladigan pul munosabatlarining amalga oshirilishida vositachi sifatida xizmat ko'rsatadi. Pul doimo o'zi bilan ehtiyotkorona muomalada bo'lishni va saqlashni, uni ko'paytirishga harakat qilishni, iqtisod bilan samarali va oqilona ishlatishni talab qiladi. Pulni tejab-tergab ishlatadigan subyekt doimo doimo pulga ega bo'lishi, pulini hisobsiz sarflaydigan kishi undan tezda ajralib qolishi va nochor ahvolga tushishi mumkin.

Banklarning vujudga kelishi tovar-pul munosabatlarining asosiy elementlari sifatida, pulning qiymat shakli paydo bo'lishi bilan bir davrga to'g'ri kelgan. Iqtisodiy adabiyotlarda dastlabki banklarning vujudga kelishi haqida aniq ma'lumotlar mavjud emas. Ayrim iqtisodchi olimlar banklarni feodalizm davrida vujudga kelganini ta'kidlashasa, ularning ayrimlari esa kapitalistik tuzumning dastlabki davrlarida paydo bo'lganligini ta'kidlaydi. Uchinchi guruh olimlar, banklar

faoliyatiga xos bo'lgan operatsiyalar miloddan avvalgi davrlarda paydo bo'lganligini qayd etadilar³.

Tarixiy manbalarga ko'ra, dastlabki banklar Gretsiyada paydo bo'lgan, keyinchalik xalqaro savdo munosabatlarning rivojlanishi natijasida Yevropa mamlakatlarida banklar vujudga kelgan. Shuningdek, natural xo'jalikning barham topishi, tovar-pul munosabatlarning rivojlanishi natijasida hisob-kitoblar va kreditlarning roli shiddat bilan ortib bordi. Bular o'z navbatida bir maromdagi hisob-kitob va pul muomalasini tashkil etish zaruriyatini keltirib chiqardi. Bu jarayon o'z-o'zidan banklarning tashkil topishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi⁴.

Bank – bu moliyaviy muassasa bo'lib, jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini tegishli shartlar bilan jalb etib, ushbu mablag'larga ehtiyoji mavjud bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarga qaytarishlik, muddatlilik, to'lovlilik va ta'minlanganlik asosida kredit beradigan va ular uchun turli vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi tijorat tashkilotidir⁵.

Boshqa bir adabiyotda, bank – tadbirkorlik faoliyatining o'ziga xos turi bo'lib, uning faoliyati ssuda kapitalining harakati, ya'ni ularni jalb qilish va joylashtirilishi bilan bevosita bog'liqdir, degan fikr ilgari suriladi⁶. Bankir ssuda kapitalistidan farqli o'laroq, turli ko'rinishdagi xizmatlarni taklif etadi va pul aylanmasini tashkil qiladi. Ssuda kapitalisti ishlab chiqarishni o'z kapitali hisobidan moliyalashtirsa, bankir ushbu jarayonni chetdan jalb qilingan yagona shaxslarning mablag'lari hisobidan amalga oshiradi.

O'zbekiston tijorat banklari, avvalo ixtisoslashgan kredit institutlari sifatida ko'zga ko'rina boshlagan. Bu bir tomondan bo'sh pul mablag'larini jalb etishi, boshqa tomondan esa jalb etilgan mablag'lar hisobidan korxonalar, xususiy tadbirkorlar va aholining moliyaviy ehtiyojlarini qondirishi bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy va mahalliy ekspertlarning qayd etishicha, so'nggi yillar davomida respublikada asosiy tamoyil – ixtisoslashuvdan uzoqlashish va bank faoliyatida universallashtirishni yanada rivojlantirish kuzatilmoqda. Bu esa bank operatsiyalari mazmuni va kredit munosabatlari mohiyatini oldindan belgilab beradi.

2008-2009-yillarda aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun bank chakana mahsulotlarini rivojlantirish bank faoliyatining muhim yo'nalishiga aylandi. Mazkur

³ Omonov A.A, Qoraliyev T.M. Pul va banklar.T.: IQTISOD-MOLIYA. 2019. 224 b.

⁴ Omonov A.A, Qoraliyev T.M. Pul va banklar.T.: IQTISOD-MOLIYA. 2019. 225 b.

⁵ Omonov A.A, Qoraliyev T.M. Pul va banklar.T.: IQTISOD-MOLIYA. 2019. 227 b.

⁶ Банки и банковские операции: Учебник для вузов/ Е. Ф. Жуков, Л. М. Максимова, О. М. Макарова и др. Под ред Е. Ф. Жукова. – М.: Банки и биржи, ЮНИТА, 1997. С. 6.

yo'nalishda banklar o'z faoliyatini dunyoviy amaliyotning "oltin" prinsipidan kelib chiqqan holda olib bordilar. Ya'ni, aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarning jozibadorligi tadbirkorlarning kreditlardan foydalanish keng imkoniyati bilan mutanosib holda rivojlantirildi. Davom ettirilgan islohotlar bank faoliyatini aholining turmush darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi, ilgari qabul qilingan "Iste'mol krediti to'g'risida"gi va "Ipoteka to'g'risida"gi qonunlar doirasidagi faolligini yanada kuchaytirdi.

Banklarning mohiyati va funksiyalari, shuningdek, bajaradigan operatsiyalari va ko'rsatadigan xizmatlari ularning iqtisodiyotdagi rolini belgilab beradi. Banklarning iqtisodiyotdagi roli deganda asosiy e'tiborni ularning vujudga kelish omillari, rivojlanish jarayonlari va bajaradigan operatsiyalariga qaratish lozim. Banklarning roli ularning funksiyalari kabi ma'lum darajadagi xususiyatlarga egadir. Banklar mulkiy jihatdan qanday shaklda tashkil topgan bo'lishidan qat'iy nazar, iqtisodiyotda umum ahamiyatga ega bo'lgan operatsiyalarni bajaradi. Shu bois ham banklar qanday mulkiy shaklda yoki ixtisoslikda tashkil topgan bo'lishidan qat'iy nazar, ular iqtisodiyotda alohida ahamiyat kasb etadi. Banklarning iqtisodiyotdagi roli xususida so'z ketganda, dastlab jamiyatda ularning bajaradigan operatsiyalarini zarurligi va turlari, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholining ularga bo'lgan ehtiyoji doirasida so'z yuritish maqsadga muvofiq. Bularning barchasi banklarning iqtisodiyotdagi ahamiyatini anglatadi. Albatta, banklarning iqtisodiyotdagi ahamiyati juda ko'pqirrali bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini tegishli shartlar asosida o'ziga jalb etadi;
- qo'shimcha moliyaviy mablag'larga ehtiyoji mavjud xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholiga qaytarishlik, to'lovlik, muddatlilik va ta'minlanganlik asosida mablag'lar beradi;
- milliy valutaning emissiyasini tashkil etadi va uning barqarorligini ta'minlash doirasida pul - kredit siyosatini amalga oshiradi;
- pul aylanmasini tashkil etadi va uning tartibini belgilaydi;
- iqtisodiy munosabatlarga kirishuvchi subyektlar o'rtasida hisob-kitob va to'lovlarni amalga oshirishda vositachilik qiladi;
- bozor ishtirokchilariga turli darajadagi komission va maslahat xizmatlarini amalga oshiradi;
- aholiga va mijozlarga trast va depozitar xizmatlarini taklif etadi.

Banklarning iqtisodiyotdagi rolining asosiy jihatlaridan biri, jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini jamg'arish asosida ularni iqtisodiyotning tegishli tarmoqlariga qayta taqsimlashda namoyon bo'ladi. Xalqaro bank amaliyoti va

mustaqillikdan keyin bosib o'tilgan qisqa davrda yig'ilgan tajribalarning natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, bozor iqtisodiyotining asosiy o'zagi asosan o'zaro ishonch va halollikka tayanadi. Agar mazkur holatni aholi va mijozlarning banklarga bo'lgan ishonchi yo'qolishi bilan bog'lab ko'radigan bo'lsak, banklarga nisbatan ishonch yo'qolishi oqibatida ularning jamiyatdagi rolini pasayishiga olib keladi. Banklarning iqtisodiyotdagi roli nafaqat banklarning o'ziga, balki milliy iqtisodiyotning rivoji va raqobatbardoshligiga bevosita bog'liq. O'z navbatida, iqtisodiyotning rivojlanishi va raqobatbardoshligi mamlakatda barqaror va samarali bank tizimining tashkil etilganligi bilan bevosita bog'liqdir. Bir so'z bilan aytganda, banklar va milliy iqtisodiyot bir - biridan ayri holda rivojlanishining imkoniyati mavjud emas. Ular biri - birini to'ldirgan holda, bir - biriga o'zaro hamoxang tarzda rivojlanib va takomillashib boradigan iqtisodiy - moliyaviy subyektlar hisoblanadi.

Kredit - bu ssuda kapitalining harakati, bir korxonaning boshqa korxonadagi mablag'larini, birinchisiga qaytishi sharti bilan, bir sub'ektning boshqasiga qarz sifatida ishlatishi⁷.

Jamiyatda tovar-pul munosabatlari vujudga kelgan bir davrda jamiyat rivojlanib borgan va yana bir muhim munosabat ya'ni kredit munosabatlari vujudga kelgan.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki banklar, ularning iqtisodiyotda tutgan o'rne beqiyos. Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanar ekan avvalo uning bank sohasi rivojlangan va mustahkam bo'lishi lozim. Birorta ham rivojlangan yoki rivojlanayotgan mamlakat yo'qki iqtisodiyoti, banklari rivojlanmay turib yuksaklikka erishgan. Shunday ekan mamlakat rivojlanishi va jahon hamjamiyatida muhim o'rinlarni egallashi uchun ularning iqtisodiyoti va banklari yaxshi rivojlanishi kerak. Davlat iqtisodiyoti rivojlanishi kerak ekan avvalo uning banklari yaxshi rivojlanishi kerak. Banklarning mohiyati, bajaradigan operatsiyalari va funksiyalari, mijozlarga ko'rsatadigan xizmatlari uning iqtisodiyotdagi rolini aniqlab beradi. Banklarning iqtisodiyotdagi o'rne deganda ularning vujudga kelishi, rivojlanish jarayonlari va bajaradigan funksiyalariga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Banklarning iqtisodiyotdagi roli ular bajaradigan funksiyalar kabi xususiyatlarga ega. Banklar qanday tashkil topishidan qat'iy nazar, iqtisodiyotda muhim ahamiyatga ega bo'lgan funksiyalarni bajaradi. Shu bois ularning iqtisodiyotdagi o'rne juda muhim hisoblanadi.

O'zbekiston bank-moliya tizimini rivojlantirish yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad davlat iqtisodiyotini rivojlantirish va jahon hamjamiyatidagi o'rnini yanada yaxshilashdan iborat.

⁷ Abdullayev A. J., Qayimova Z. A., Boltayev Sh. Sh., Narzieva D.M. Pul va banklar. T.: Durдона, 2021. 145 b.

Banklarning iqtisodiyotdagi rolini oshishi yoki kamayishi nafaqat ularning sa'y harakatlatiga balki milliy iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasi va raqobatbardoshligiga bog'liq. Iqtisodiyotni rivojlantirishda maqsadida mulkdorlar sinfini shakllantirish, raqobat muhitini qo'llab-quvvatlash, moliya va bank tizimini takomillashtirish muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva SH.Z. Bank ishi. T.: Iqtisod-Moliya, 2017.
2. Bank tizimini yanada isloh qilish strategiyasi to'g'risida. PF-5993-son. T.,2020 y. 12 may.
3. Деньги, кредит, банки: Учебник/Кол. авт. Под ред. О.И.Лавшурина. – М.: КНОРУС, 2007.
4. Банки и банковские операции: Учебник для вузов/ Е. Ф. Жуков, Л. М. Максимова, О. М. Макарова и др. Под ред Е. Ф. Жукова. – М.: Банки и биржи, ЮНИТА, 1997.
5. Abdullayev A. J., Qayimova Z. A., Boltayev Sh. Sh., Narzieva D.M. Pul va banklar. T.: Durdon, 2021.
6. Деньги, кредит, банки: Учебник/Под ред. В.В.Иванова, Б.И.Соколова. – М.: ТК Велби, Проспект, 2008.
7. Денги, кредит, банки: Учебник для вузов/Под. Ред. В.А.Щегорцова. – М.: ЮНИТИ – ДАНА, 2005.
8. Абдуллаева Ш.З. Пул, кредит ва банклар. Т.: Иктисод – Молия, 2007.
9. Деньги, кредит, банки: Учебник/Кол. авт. Под. Ред. О.И.Лавшурина М.: КНОРУС, 2007.
10. https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12594_2_F73689EE6175CB594F6BEABC06D737E9CA1955.pdf
11. <http://em.tiame.uz/storage/web/source/1/elektron%20kutubxona/15-18%20Pul%20kredit%20va%20banklar.pdf>
12. <https://azkurs.org/mavzu-banklar-ularning-turlari-va-kredit-tizimidagi-rol.html>
13. <https://cbu.uz/oz/>
14. <https://qalampir.uz/uz/news/shavkat-mirziyeev-banklar-faoliyatiga-oid-yigilish-utkazdi-10095>